



**Доверенность  
на авто теперь  
можно оформить  
на ЕПИГУ**

5-стр.



**Innovatsion  
batareya  
elektromobilni  
arzon qiladi**

6-бет.



**Agar har kuni  
Coca cola  
ichsangiz nima  
bo'ladi?**

8-бет.



ict.xabar.uz

Gazeta 1992-yil martdan chiqsa boshlagan

# Xabar

ERUR SEN SHOH, AGAR OGOSSEN SEN,  
AGAR OGOSSEN SEN, SHOSEN SEN.

**37 (1563)-son  
16-sentabr  
2022**

@xabaruzofficial  
facebook.com/xabar.uz/  
@xabaruzofficial

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA KOMMUNIKATSİYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI NASHRI

[www.xabar.uz](http://www.xabar.uz)



## Yarim milliard dollardan ortiq investitsiya shartnomalari imzolandi

So'nggi yillarda raqamli texnologiyalar jamiyat hayotining barcha jahbalarini qamrab olmoqda. Taraqqiyotning muhim omili sifatida qara layotgan telekommunikatsiya sohasi mamlakatimizda jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Bunday ishlar, aholi va tashkilotlarni yuqori tezlikdagi internet tarmog'i va sifatlari aloqa xizmatlari bilan ta'minlaydi.

Shanxay Hamkorlik Tashkilotining Samarqand sammiti doirasida va Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szin'pinning mamlakatimizga davlat tashrifi arafasida "O'zbektelekom" AK mamlakatimizdagi infratuzilmani modernizatsiyalash va hamkorlik shartnomalarini yanada kengaytirish bo'yicha bir qator ishlarni amalgalash oshirmoqda.

► 2

## "Elektron tijorat to'g'risida"gi qonun senatorlar tomonidan ma'qullandi

Oliy Majlis Senatining o'ttiz ikkinchi yalpi majlisida senatorlar Elektron tijorat to'g'risida gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini ko'rib chiqdilar.



Ta'kidlanganidek, mamlakatimizda so'nggi 5 yilda elektron tijorat sohasida yalpi ishlab chiqarish hajmi 48 barobarga oshib, 1,1 trln. so'mni tashkil qilmoqda. Lekin, "Elektron tijorat to'g'risida"gi 2015 yilda qabul qilingan amaldagi Qonun ishlab chiqilgan davrda bu imkoniyatlar yetarli darajada rivojlanmagan edi.

► 3

## ShHTning Samarqand sammitiga bag'ishlangan pochta markasi muomalaga kiritildi

Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (ShHT)ga a'zo davlatlar rahbarlarining Samarqandda bo'lib o'tadigan majlisi munosabati bilan pochta markasi muomalaga kiritildi.



gadimni Samarqand shahrining ramziy markazi hisoblanishni Registon maydoni joylashgan.

Joriy yilning 14 sentabr kuni Samarqand shahridagi "Buyuk Humo" mehmonxonasining majlislar zalida ShHTning Samarqand sammitiga bag'ishlangan pochta markasini maxsus xotira shtempli bilan tanitan so'ndirish marosimi bo'lib o'tdi.

Marosimni O'zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlanish vaziri Sherzod Shermatov kirish so'zi bilan ochdi.

AKT vaziri barcha yig'ilish qatnashchilarini ushbu marosimda ishtirokidan mammun ekanligini hamda bugungi kunda so'ndirishi amalga oshirilayotgan pochta markasi Samarqand shahrida bo'lib o'tayotgan tarixiy voqeя sharafiga bag'ishlanganini, uni pochta xizmatida ishlatish, esdalik sifatida hamda markalar kolleksiyasini tayyorlashda foydalanish mumkinligi haqida so'z yuritdi.

Shuningdek, marosimda Rossiya Federatsiyasi Prezidentining ShHT ishlari bo'yicha maxsus vakili Baxtiyor Hakimov, ShHT milliy koordinatori Yod-jana Patel (Hindiston), ShHT milliy koordinatori (Xitoy Xalq Respublikasi) Chjen Xaychou va boshalar qatnashishdi.

Abdug'afur HOTAMOV,  
"Xabar"ning Samarqand viloyatidagi muxbir

## DUNYONING ENG QIMMAT KOMPANIYALARI (2022)

1. Apple – \$2 650 mld.
2. Aramco – \$2 300
3. Microsoft – \$2 090
4. Alphabet – \$1 540
5. Amazon – \$1 420
6. Tesla – \$910,0
7. Berkshire Hathaway – \$643,8
8. United Healthcare – \$501,9
9. Meta – \$457,5
10. Visa – \$455,6



Marta: Bloomberg

Ushbu pochta markasi O'zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlanish vazirligi tashabbusiga ko'ra "O'zbekiston pochtasi" AJ-tomonidan tayyorlandi.

Pochta markasida ShHTga a'zo bo'lgan Hindiston, Qozog'iston, Xitoy, Rossiya, Pokiston, Qirg'iziston, Tojikiston va O'zbekiston davlatlari bayroqlari, Shanxay hamkorlik tashkilotining Samarqanddagi sammitiga bag'ishlangan logotipi hamda Samarqand shahrining gerbi tasvirlangan.

Pochta markasining orqa fonida O'zbekistonning Sharq durdonalari sifatida tan olingen

Jumadan  
Jumagacha

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 8 sentabr kuni Parlamentlararo ittifoq delegatsiyasi - ushu nufulzi tuzilma raisi Duarte Pacheco va bosh kotibi Martin Chungongni qabul qildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 13 sentabr kuni Samarqandga keldi. Davlatish rahbari dastlab Imom Buxoriy maqbarasini ziyorat qildi. Qur'on tilovat etilib, duo o'qildi. Shavkat Mirziyoyev Birinchini Prezidentimiz Islom Karimov qabrini ham ziyorat qildi. 15-16 sentabr kunlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida Samarqand shahrida Shanxay hamkorlik tashkiloti Davlat rahbarlari tengashining 22-majlisini bo'lib o'tadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 14 sentabr kuni ShHTning Samarqand sammitida ishtiroy etish uchun mamlakatimizga kelgan BMT Bosh kotibining siyosiy masalalar va tinchlikni barpo etish bo'yicha o'tinbosari Rozmari DiKarloni qabul qildi.

Shanxay hamkorlik tashkilotining sammitida ishtiroy etish uchun 14-15 sentabr kunlari Mo'g'uliston Prezidenti Uxnaagiyn Xurelsux, Eron Islom Respublikasi Prezidenti Ibrohim Raisiy, Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szin'pin, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon, Turkmaniston Respublikasi Prezidenti Serdar Berdimuhamedov, Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin, Pokiston Islom Respublikasi Bosh vaziri Shahboz Sharif, Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliev, Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenko, Qozog'iston Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev va Turkiya Respublikasi Prezidenti, Rejep Tayyip Erdogan rafiqasi Emine Erdogan bilan Samarqand shahriga kelishdi.

Samarqanda Xitoy, Qirg'iziston va O'zbekistonning tegishli idoralar o'rtaida "O'zbekiston - Qirg'iziston - Xitoy" temir yo'li qurilishi loyihasi bo'yicha hamkorlik to'g'risida bitim imzolandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szin'pinning samarxon muzokalaralaridan so'ng ikki tomonloma hujjalarning salmoqlari to'plami qabul qilindi. Xususan, Davlat rahbarlari Qo'shma bayonot imzoladilar. Oliy darajadagi tashrif doirasida 15ta hujjat imzolandi. Savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikka doir umumiy qiyamti 15 milliard dollarlik kelishuvlarga erishildi va bitimlar imzolandi. Xitoy Xalq Respublikasi Raisi "Oliy Darajali Do'stlik" ordeni bilan taqdirlandi.

## Yarim milliard dollardan ortiq investitsiya shartnomalari imzolandi



Xususan, O'zbekiston va Xitoy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida o'zaro manfaatlil hamkorlikni yo'liga qo'yish maqsadida "Huawei International PTE, LTD" hamda "ZTE Corporation" kompaniyalari respublikamizda telekommunikatsiya infratuzilmasini yanada rivojlantirish bo'yicha umumiy qiyamti 506,8 mln. AQSh dollaridan ortiq 4ta investitsiya loyihani amalga oshirish bo'yicha kelishuvga erishildi.

Joriy yilning 14 sentabr kuni Samarqand shahrida "O'zbektelekom" AK hamda "Huawei International PTE, LTD" va "ZTE Corporation" kompaniyalari o'rtaida jami 8ta shartnomani imzolash marosimi bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vaziri Sherzod Shermatov va boshqa hamkor kompaniyalar mutasaddilari ishtirok etdi.

Mazkur loyihalar ikki bosqichda amalga oshiriladi. Natijada:

- aholining telekommunikatsiya xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlari va qamrovi yanada kengaytiriladi;
- ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati oshiriladi;
- xalqaro ahamiyatga ega magistral avtomobil va temir yo'llari bo'ylab yuqori tezlikdagi mobil internet bilan to'liq qamrab olinadi;
- Toshkent shahri va viloyatlar markazlarida beshinchi avlod 5G standartidagi baza stantsiyalari o'rnatishga;
- ma'lumotlar uzatish va magistral transport tarmoqlarining o'tkazuvchanlik qobiliyati yanada kengayishiga erishiladi.

Alovida ta'kidlab o'tish joiz, davlat byudjetidan bu yo'naliishga mablag' ajratilmaydi, barchasi korxonalar daromadlari hisobidan qaytariladigan investitsiyalardir.

### Tadbir

## "International Ideathon Central Asia 2022" – talabalar uchun yaxshi imkoniyat

Joriy yilning 9-11 sentabr kunlari Toshkent shahridagi INHA universiteti va SAP hamkorligida talabalar uchun "International Ideathon Central Asia 2022" uch kunlik oflayn ideaton tashkil etildi.



Ideaton – g'oyalar raqobatini nazarda tutadi, ishtiroychilar berilgan mavzu bo'yicha ma'lum loyiha g'oyasini ishlab chiqishadi, so'ngra ularni hakamlar hay'atiga taqdim etib, fikr-mulohazalarga ega bo'lishadi.

Tadbir davomida ishtiroychilar StanfordDesignThinking usuli hamda SAP platformasi yechimlari bilan tanishadilar va bilimlarni amaliyotga tatbiq etadilar.

"Yirik kompaniyalarining rivojlanishi uchun ham yoshlar kerak, ammo ular endigina o'qishni bitirib, ishni boshlashganda teoretik bilimga ega bo'ladiolar xolos. Mutaxassis darajasiga erishish uchun esa yana bir-ikki yil sarflash kerak. Bizning maqsadimiz esa yoshlarni talabalik davridanoq bilimlarni amaliyotga tatbiq etish usullarini o'rgatish. Mavjud imkoniyatlardan foydalanim, g'oyalarini shakllantirish va biznes,

iqitsodiyotga joriy etishni o'rgatishdir", – deydi SAP Uzbekistan direktori Laziz Adamov.

Uch kun davom etgan tanlov natijalariga ko'ra g'olib jamoalar tanlab olinib, hakamlar hay'ati tonidan esdalik sovg'alar bilan taqdirlandilar.

### Sizga g'oliblarni taqdim etamiz:

#### 1-o'rinn – TOKS

IT-mutaxassislarini O'zbekistonga ko'chirish jarayonini qo'llab-quvvatlash platformasi, bu mamlakatda yangi hayotning tez integratsiyalashuvi va "boshlanishi" uchun to'liq va dolzarb ma'lumotlarni taqdim etadi.

#### 2-o'rinn – Xoja TSHIU talabalarini

O't o'chiruvchi ilova. Loyiha menejerlari va guruh/dev-ye-takchilar uchun IT-mutaxassislarini o'rtaida charchoqni o'z

vaqtida aniqlash uchun panel. Tizimdag'i ish jurnallarini tahlil qilish, shuningdek, ish unumдорligining pasayishi va xodimlar o'rtaida yuqori stress haqidagi rahbariyatni o'z vaqtida xabardor qilish uchun so'rovlar mo'ljallangan.

3-o'rinn – Belarus davlat universiteti (Minsk), IUT va MGIMO (Moskva) IT Hack jamoasi IT-Park rezident kompaniyalariga tizim integratsiyasi loyihalarini uchun yuqori malakali mutaxassislarini vaqtincha ijaraga olish imkonini beruvchi ilova.

4-o'rinn, Plexanov nomidagi Rossiya iqitsodiyot universiteti (Moskva) va Nijniy Novgorod Oliy Iqtisodiyot maktabi jamoasi IT startaplarining akseleratsiya dasturlarida bosqichma-bosqich ishtiroy etish jarayonini qo'llab-quvvatlovchi platformasi bilan qatnashdilar.

# “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi Qonun senatorlar tomonidan ma’qullandi

«1


Qolaversa, jahon bo‘ylab koronavirusning keng tarqalishi dunyo aholisining elektron tijoratga bo‘lgan talabini yanada oshirdi. Natijada onlaysavdo qilish tizimi yil sayin o‘sib bormoqda. Birgina 2020 yilda elektron tijorat savdo hajmi Xitoyda 24,9 foizga, Janubiy Koreyada 25,9 foizga, AQShda 14 foizga va Singapurda 11,7 foizga oshgan. O‘zbekistonda esa elektron tijorat hajmi 80 foizga o‘sgan.

Majlisda qayd etilishicha, amaldagi qonunda sohaning rivojlanishi uchun yetarlicha shart-sharoitlar ko‘zda tutilmagan. Xususan, barcha elektron tijorat sub‘yektlari qamrab olinmagan, elektron tijoratga oid hujjatlarni almashish, to‘lov mexanizmlari va tovarlarni qaytarish masalalarini amaliyotda qo’llashda tushumovchiliklar yuzaga kelmoqda.

Yangi tahrirdagi “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi Qonun “Raqamli



O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan maqsadlar asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, unda elektron shartnomalarni tuzishning aniq tartibi belgilanmoqda. Jumladan, elektron hujjatlarning yuridik kuchi, ofertaga qo‘yiladigan talablar, elektron hujjatlarni saqlash xususiyatlari, elektron bitimni amalga oshirish tartibi hamda elektron shartnomalarni tuzish shartlari huquqiy jihatdan mustahkamlab qo‘ymoqda.



Senatorlarning so‘zlariga ko‘ra, qonun analiyotda ko‘plab gulayliklarni yaratadi. Xususan, Qonun bilan elektron tijorat xaridorning shartlari to‘liq qondirilmaguncha axborot tizimida pul mablag‘larini ushlab turish imkoniyatini beruvchi pulni deponentlash tizimi (eskrov) joriy qilinmoqda. Yana bir muhim jihat, yuridik shaxslar bilan bir qatorda o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarga elektron tijoratda ishtirok etish huquqi berilmoqda.

Senatorlar “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi Qonun yaqin kejalakda shaffof va ochiq holda sotuvchilar va xardorlar o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomaviy munosabatlarni o‘rnatish, xalqaro standartlarga javob beradigan texnologik bozor infratuzilmasini yaratishga ko‘mak berishini ta’kidlab o‘tdilar.

Qonun senatorlar tomonidan ma’qullandi.

## Samarqand sammiti

# ShHT va raqamlashtirish: Inklyuziv iqtisodiy rivojlanish va investitsiya jozibadorligi garovi

So‘nggi o‘n yilliklarda ko‘plab davlatlar, jumladan, ShHTga a‘zo bo‘lgan yetakchi davlatlar – Xitoy, Hindiston, Rossiya, shuningdek, Markaziy Osiyo mamlakatlari hukumatlari iqtisodiy o‘sishni saqlab qolish va tezlashtirish bo‘yicha o‘zlarining raqamli strategiyalarini ishlab chiqdilar va ularning rivojlanish maqsad-vazifalariga uyg‘un ravishda doimiy optimallashtirmoqdalar.

Masalan, Markaziy Osiyo mintaqasining deyarli barcha davlatlari (Turkmanistondan tashqari) raqamlashtirishni rivojlanishish bo‘yicha o‘z dasturlarini qabul qilgan. Xususan, 2018-yilda Qozog‘iston “Raqamli Qozog‘iston” dasturini tasdiqladi, O‘zbekiston 2020-yilda “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasini, Tojikiston ham shu 2020-yilda Raqamli iqtisodiyotni rivojlanish kontsepsiyasini qabul qildi.

Bugungi kunda raqamlashtirishning rivojlanishi tuyfali butun dunyoda 4G, sun‘iy intellekt, aqli shaharlar kabi yangi texnologiyalar paydo bo‘ldi. Ular jahoning ilmiy-tehnik taraqqiyoti, ishlab chiqarish tuzilishiga va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlariga kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda.

Shanxay hamkorlik tashkilotining yetakchi davlatlaridan biri – Xitoyning raqamlashtirish va turli yangi texnologiyalarni kundalik hayotga joriy etish, ayniqsa, “xavfsiz shahar” platformasi (“aqli shahar”) va 5G tarmoqlarini yaratish borasidagi yutuqlari tashkilotga faol a‘zo mamlakatorda, jumladan, mintaqamiz davlatlarida raqamli iqtisodiyotni rivojlanishiga hissa qo‘shyapti. Xitoy bu sohada, ayniqsa, 5G texnologiyasini yo‘lga qo‘yishda asosiy mamlakatlardan biridir. Alibaba, Tencent va Huawei kabi texnologiya gigantlari endi “Silikon vodiysi”da global raqobatichilardir. Nisbatan qisqa vaqt ichida ushbu kompaniyalar tijorat va IT sohalarida gigantlarga aylandi, ularning xizmatlardan Sharq, Janubi-Sharqiy, Markaziy Osiyo va Rossiyada keng foydalanimoqda.

Masalan, bugungi kunda Huawei mintaqamizning uchta davlati – O‘zbekiston, Qozog‘iston

va Qirg‘izistonda IT-sohasida bozor yetakchisi hisoblanadi. Mavjud statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, Qozog‘iston aholisining 60 foizdan ortig‘i Huawei uskunasiga asoslangan qurilmalar va xizmatlardan foydalanadi. Kompaniya Qozog‘iston Respublikasi uchun maxsus ishlab chiqilgan 300dan ortiq mahsulot va texnologiyalarni ichki bozorga yetkazib beradi.

Huawei O‘zbekiston hukumatini bilan birgalikda respublikaning kelajakdagi rivojlanishi uchun bir qator strategik muhim loyihalarni amalga oshirishni rejalashtirmoqda. Huawei va Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlanish vazirligi, UMS mobil operatori, Xalq ta‘limi vazirligi, Jurnalistikka va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti o‘rtasida memorandumlar imzolandi. Imzolangan hujjatlar doirasida respublika IT-infratuzilmasini modernizatsiya qilish, xavfsiz shahar loyihasini yaratish bo‘yicha loyihalarni amalga oshirishga oid qator kelishuvlarga erishildi.

Mutaxassislarlarning fikricha, Shanxay hamkorlik tashkiloti mamlakatlari transport infratuzilmasini rivojlanishda raqamlashtirish alohida o‘rin tutadi, buning natijasida transport xarajatlarini 30 foizga kamaytirish va transport yo‘nalishlarining o‘tkazish qobiliyatini 40 foizga oshirish mumkin. Multimodal transport-logistika markazlarini birlgilikda qurish, ShHTga a‘zo davlatlarning transport yo‘nalishlari bo‘ylab sanoat klasterlari tarmog‘ini shakllantirish hamkor davlatlarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi.

Shu bilan birga, jamiyat va davlatlar hayotini

jadal raqamlashtirish kiberxavfsizlik sohasida bir qator dolzarb muammolarni keltirib chiqarmoqda. Mutaxassislarning fikricha, 2021-yilda dunyoda kiberhujumlar soni 2020-yilga nisbatan 50 foizga oshgan. 2021-yilda dunyodagi eng ko‘p hujumga uchrangan tarmoqlar orasida ta‘lim va tadqiqot sektorini birinchi o‘rinni egalladi.


Shu boisdan ham 15 yil avval ShHT kun tartibiga kiritilgan xalqaro axborot xavfsizligi mavzusi bugungi kunda raqamlashtirish sharoitida ham dolzarbigacha qolmoqda. O‘tgan yillardan davomida ShHTga a‘zo davlatlarning axborot makonida mas‘uliyati xulq-atvori bo‘yicha universal qoidalarni ishlab chiqish, AKTdan noqonuniy maqsadlarda foydalanishning oldini olish bo‘yicha xalqaro sa‘y-harakatlarga rahbarlik qilish imkonini beruvchi yagona yondashuv shakllandi. 2021-yilda Dushanbedagi yubiley sammiti yakunlari bo‘yicha 3ota hujjat, jumladan, O‘zbekiston va Rossiya tashabbusi bilan ishlab chiqilgan 2022–2023-yillarga mo‘ljallangan xalqaro axborot xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha ShHT mamlakatlari o‘rtasidagi hamkorlik rejasini imzolandi.

Bugungi kunda raqamlashtirish ShHTga a‘zo davlatlarning inklyuziv iqtisodiy rivojlanishi va investitsiya jozibadorligini oshirishning garovidir. Shu nuqtai nazardan qaraganda, Samarqand sammitida Tashkilotga a‘zo davlatlarning 2023–2027 yillarga mo‘ljallangan uzoq muddatli yaxshi qo‘shinchilik, do‘stlik va hamkorlik to‘g‘risidagi shartnomani amalga oshirish bo‘yicha Kompleks dasturning qabul qilinishi shubhasiz. Tadbir ShHTga a‘zo davlatlar o‘rtasidagi ko‘p qirrali sheriklik darajasini, jumladan, raqamlashtirish sohasini yuksaltirishga o‘z hisssasini qo‘shadi.

**Muzaffar JALOLOV,  
Toshkentdagli INHA universiteti rektori**

# Avval "Girgitton", endi "Rasta" – navbat xorijga!

"IT-Motivatsiya" ko'rsatuvining bugungi mehmoni IT tadbirkor, EDU o'quv markazi va "Girgitton" loyihalari asoschisi Xurshid Maroziqov.



- Assalomu alaykum. Studiyamizda xush ko'rdir. Avvalo, sizga an'anaviy savolimiz, ya'ni soha ga qanday kirib kelganizingidan emas, balki loyihangiz nega aynan "Girgitton" deb nomlanganligiga e'tibor qaratmoqchi edim. Odatta, ofitsiantlarga qarata girgitton, deya murojaat qilinadi...

- O'sha paytda "Girgitton" nomini ovqat yetkazib beruvchi platforma sifatida tanlaganmiz. Ovqat yetkazib berish odatda ofitsiantlarning ishi bo'lganligi uchun, qolaversa, bu xizmatni vodiya yo'liga qo'yanligimiz uchun ham ko'proq chapani uslubda nomlashni ma'qil ko'rganmiz.

- Nega endi nomini "Rasta" ga o'zgartirdingiz?

- "Rasta" ga o'zgarishining asosiy sababi bizning rejalarimiz o'zgara boshladi. Ya'ni, keyinchalik nafaqat ovqat yetkazib berish, balki boshqa xizmatlarni ham yo'liga qo'yib, katta savdo rastasiga aylanmoqchimiz. Qolaversa, kelajakda boshqa davlatlarda ham faoliyatimizni olib borsak, girgitton so'zi biroz aytishga noqaylik tug'dirishi mumkin.

- "Rasta" taom yetkazib berish xizmatining Express 24dan farqi va afzalliklari nimada?

- Menimcha, Express 24dan farqi va afzalliklari haqida foydalananuvchilarimiz fikr bildirishsa to'g'riroq bo'la-di.

- Qachondan bu faoliyatni boshlagansiz?

- Vodiya Express 24dan avval boshfaganimiz, ya'ni 4 yil bo'ldi faoliyatimizni olib borayotganimizga. Toshkentda esa yaqinda yo'liga qo'ydi.

- Bu xizmat tadbirkorga qancha foyda olib keladi?

- Bilasizmi, bu biznesdan restoran sifatida tanlaganmiz. Ovqat yetkazib berish, ammalik idish ishlab chiqaruvchilar ham yaxshi foyda ko'rishadi, ammalik men bu ilovani tashkil qilgan tadbirkor sifatida umuman foyda ko'rmayapman faqat pul sarflayapman. Amma 3-5 yil davomida foydaga kirmslik startaplar uchun odatiy holat.

- O'zbekiston hududida va xorijda qaysi kompaniyalarini yoki kimiqlarni o'zingizga raqobatchi deb hisoblaysiz?

- Raqobatchi emas, havaskori de-sangiz to'g'iroq bo'ladi. Masalan, ovqat yetkazib berish yo'nalihsida Amerikadagi gigantlardan biri DoorDash, Delivery Club kompaniyalariga o'xshashga harakat qilamiz.

- IT tadbirkor uchun sayohat qilish qanchalik muhim?

- U xoh tadbirkor bo'lsin, xoh boshqa kasb egasi har bir kishi

uchun sayohat qilish juda muhim ahamiyatga ega. Shaxsan menga rejalashtirilmagan sayohatlar juda yodagi, nafaqat borgan shahrimi, balki o'zimni ham qaytadan kashf qilaman. Bundan tashqari, biznes uchun to'g'ri qaror qabul qilishga ham yordam beradi.

- Ingliz tilini 1 oyda o o'rganish cho'pchak, deb hisoblaydigan Xurshid Maroziqovning Vodiya EDU o'quv markazi ham bor. Shaxsan o'zingiz ingliz tilini qayerda qancha muddatda o'rganganansiz?

- Maktabda o'qib yurgan kezlarim boshlang'ich sinfdayoq ota-onam repetitoriga berishgan. Keyinchalik Qo'qondagi kutubxonada ingliz tili kitoblarini o'qish orqali mustaqil o'rganganman.

- Odatta ingliz tilidan o'rta darajaga erishish uchun xorijda 6 oy talab qilinadi. Xo'sh, sizningcha, O'zbekiston sharoitida qancha vaqt talab qilinadi?

- Chet elda shu tilda muloqot qilinadigan muhitda 6 oyda o'rganilsa, o'zingiz o'layvering haftada 2-3 martagina ikki soatdan shug'ullanib qanday qilib qisqa fursatda mukammal o'rganish mumkin? Bunday sharoitda natijani faqat o'quv markaziga yuklamsalik kerak. Olylik kurslarini yakunlagach ham o'quvchi ingliz tilidagi kitoblarini o'qish, filmlar tomosha qilish orqali o'z bilimlarini mustahkamlashi kerak. Menimcha o dan boshlab muloqot darajasigacha yetish uchun o'rtacha 2 yil vaqt kerak bo'ladi.

- Aynan sizning o'quv markazining qancha muddat va'da qiladi taxminan? O'quvchilaringiz necha oyda natijaga erishgan?

- Biz "yomon" ma'noda mashhuriz Qo'qon shahrida. Chunki biz ingliz tilini juda ham cho'zib o'rgatamiz. Bu, albatta, o'quvchilarining pulini olish uchun emas, aksincha, ularga mukammal ta'lim berish uchun. Buning uchun esa o'rtacha ikki yil vaqt ketadi.

- Darslar onlayn tarzda bo'lib o'tadi?

- Yo'q, darslar an'anaviy tarzda olib boriladi.

- Siz uchun qay biri afzal va samaraliroq: onlayn yoki an'anaviy ta'lim?

- An'anaviy darslarda o'quvchilar tushunmagan narsalarini o'sha vaqtning o'zida o'qituvchidan so'ray olishdan tashqari, sheriklarining xatolarini ko'rib, to'g'ri xulosa qilish orqali darslarni yaxshiroq o'zlashtiradilar.

- Ayol kishilarning IT sohasida faoliyat yuritishiga qanday qaraysiz?

- Judayam yaxshi qarayman. Nafaqat bu sohadan, umuman olganda, biz ayollarни ishlashiga qarshilik qilib qanchadan-qancha ishchi kuchini yo'qotyapmiz. Aslida esa ayollarimiz bo'qroq ilm olishlari, o'z ustida ishslashlari uchun sharoit yaratib berishimiz kerak. To'g'ri, shunday sohalar bor, u yerda ayollarning ishslashi unchalik to'g'ri bo'lmaydi, biroq IT ayollar uchun, ayniqsa, turmush o'rtog'i ishslashiga qarshilik qiluvchi xotin-qizlarimiz uydan chiqmasdan ham pul topishlari uchun niyoyatda quay kasb hisoblanadi.

E'zoza TURG'UNOVA suhbatlashdi

## Tadbir

### Microsoft, Apple kompaniyalarining ta'limi va imtihonlari endi O'zbekistonda



Endi Microsoft, Apple, Adobe, Autodesk va shu kabi mashhur brendlarning rasmiy ta'limga ega bo'lish, imtihonlardan o'tish va "Certiport" tashkiloti orqali sertifikatlarga ega bo'lish mumkin

Shu munosabat bilan, 8 sentabr kuni Certiport AQSh kompaniyasining O'zbekistondagi rasmiy hamkorı Certiport InfoTech MChJ tashkilotining ochilish marosimi bo'lib o'tdi.

Bu kabi rasmiy ta'lim va sertifikatlar IT sohasiga qiziquvchi yoshlar uchun nima beradi?

Talabaning ingliz tilini bilish darajasi IELTS baliga bog'liq bo'lganidek, IT mutaxassislarining bilim ko'nikmalari aynan shu kabi rasmiy ta'limga bog'liqdir.

"Rasmiy ta'lim va sertifikatga ega bo'lgan mutaxassislar ish topishda va daromad masalasida qiyinchilikka uchramaydilar. Aytaylik IT sohasini o'rgangan talaba ishga joylashayotganda, uni bir qancha qiyinchiliklarni kutadi. Birinchidan, malakaga ega ekanligini isbotlashi kerak, ikkinchidan, boshlang'ich kamroq maoshga rozi bo'lishi lozim. Agar xalqaro kompaniyalarining rasmiy ta'limga ega bo'sa, talaba ish beruvchidan nafaqat ish so'rash balki oylik ish haqqi miqdorini talab qila oladi, chunki xalqaro

sertifikatga ega bo'lganlarga talab yugoridir", - deydi "Certiport" asoschilaridan biri Umidon Ishmuhammedov.

"Certiport" AQShda tashkil etilgan bo'lib, hozirda dunyoning 148 mamlakatida sertifikatlashtirish imtihonlarini ishlab chiqish, yetkazib berish va dasturlarni boshqarish xizmatlarini yetkazib beruvchi yetakchi tashkilot hisoblanadi. Sertifikat imtihonlari butun dunyo bo'ylab 26 tilda, 15 ooodan ortiq rasmiy test markazlarining keng tarmog'i orqali yetkazib beriladi va har yili millionlab imtihonlarni o'rta maktab va undan keyingi ta'lim, mehnat va korporativ texnologiya bozorlari orqali o'tkazib keladi.

## Доверенность на управление авто теперь можно оформить на ЕПИГУ

Заработала онлайн-услуга оформления электронной доверенности на управление автомобилем, сообщает пресс-служба ЕПИГУ.



Услуга доступна для физлиц в разделе "Юстиция" и оказывается в автоматическом режиме. Для этого не требуется каких-либо дополнительных документов или нотариального заверения — пользователь должен только авторизоваться и подать запрос в Минюст.

После оплаты госпошлины пользователь получит цифровую доверенность с QR-кодом. Документ также будет доступен онлайн для сотрудников СБДД МВД, поэтому его не придётся предъявлять.

Сумма госпошлины за оформление доверенности определяется исходя из срока её действия:

- до 1 месяца — 30% от БРВ (90 000 сумов);
- до 6 месяцев — 150% от БРВ (450 тысяч сумов);
- до 3 лет — 3 размера БРВ (900 тысяч сумов).

Введение электронных доверенностей предусматривается постановлением Президента, изданным в июле. Тогда же было анонсировано разрешение самозанятым заниматься частным извозом с 1 сентября.

## Учёные подготовили электрозаправку с питанием от солнечных панелей

НИИ возобновляемых источников энергии разработал станцию быстрой зарядки электромобилей, работающую от солнца. Об этом сообщили в Минэнерго.



Система включает в себя аккумуляторы для накопления энергии, генерируемой фотопанелями. Заряд поступает в электромобиль параллельно с энергией из местной электросети.

Электрозаправка может вырабатывать 32 000 кВт/ч электроэнергии ежегодно. По подсчётам создателей, этого хватит для зарядки 950 электромобилей.

При этом одна установка позволит экономить 11,2 тысячи кубометров природного газа и сократить атмосферные выбросы 19,8 тонн в год. Отмечается, что система разработана с учётом климатических условий Узбекистана.

Первый образец зарядной станции местной разработки был представлен Мининноваций в конце января. Он конвертирует переменный ток напряжением 380 В в постоянный на 200-1000 В.

Электротранспорт постепенно набирает популярность в Узбекистане. В первые семь месяцев было импортировано 1314 электромобилей — втрое больше, чем в том же периоде 2021 года.

## В Ташкентской области появится медицинский "умный" город

